

RUMIY IJODIDA ILM TALQINI

Qahramon To‘xsanov Rahimboyevich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
BuxDU filologiya fakulteti dekani

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jaloliddin Rumiylarning ijodida ilm talqini xususida fikr-mulohaza yuritilib, baytlarning asliyat bilan o‘zbekcha tarjimalari qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy, forsiy, adabiyot, Jaloliddin Rumiylarning, “Masnaviyi ma‘naviy”, ilm, ruboiy, tarjima va hokazolar.

Ko‘p asrlik tarixga ega turkiy va forsiy mumtoz adabiyot olamida shariat va tariqat hukmiga muvofiq keluvchi ilohiy-irfoniy g‘oyalar tashviqiga bag‘ishlangan badiiy ijod namunalari alohida o‘rin tutadi. Bunday asarlarning aksariyati ijodkorlarning ilohiy olam asroridan olingan tabiiy zavqi, unga intilishi mahsuli bo‘lsa, bir qismi maktab va madrasalar ta‘limini yo‘lga qo‘yishda ko‘mak beradigan amaliy qo‘llanmalar yaratish zarurati o‘laroq dunyoga kelgan. Biroq bu siradagi asarlar ichida har ikki jihatga ko‘ra muhimlik kasb etadigan durdonalar ham mavjud. Buyuk shayx va shoir, tasavvuf ilmining allomasi Jaloliddin Rumiylarning “Masnaviyi ma‘naviy”si, shubhasiz, shunday asarlar safining avvalida turadigan noyob durdonadir. Sharq olamida bu asarning Qur‘oni karim va Hadislardan keyingi muqaddas manba sifatida sanalishi bejiz emas. Chunki asarda Qur‘on oyatlari va hadislar mazmun-mohiyatini tasavvufiy qarashlar bilan uyg‘unlashtirgan holda ifoda etish yetakchi tamoyil bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad, shubhasiz, komil inson tarbiyasiga hissa qo‘shishdan iborat. Olam va odam, yaralish va tiriklik, hayot va o‘lim kabi o‘lmas va abadiy muammolar haqidagi chuqur falsafiy xulosalar bayoni asarning hamma zamonlar uchun ahamiyatli bo‘lib qolishini ta‘minlaydi.

“Masnaviyi ma‘naviy” asari vujudga kelishi bilanoq dunyo xalqlari tomonidan badiiy so‘z san‘ating yuksak namunasi sifatida kutib olindi. Rumiylarning bu asarni “Forsiy Qur‘on”, “Tasavvuf qomusi”, “Ma‘naviyat dengizi”, “Dunyoning kitobi” kabi nomlar bilan ham ulug‘laydilar. Mazkur badiiy yaratmadan zavqlanish, unda ifodalangan umumbashariy fazilatlardan ibrat olish, Rumiylarning misralari bilan o‘z xalqini oshno etish qutlug‘ an‘anaga aylandi. Balxda tug‘ilib, Rumda balog‘at pillapoyalariga ko‘tarilgan bu ulug‘ shayxning dovrug‘i G‘arbda ham keng yoyildi. Natijada “Masnaviyi ma‘naviy” ta‘sirida yaratilgan yoki uning hayotbaxsh nafasi ufarib turadigan juda ko‘p badiiy durdonalar maydonga keldi. Kezi kelganda shuni aytish kerak, manzumaning mavzu olami nihoyatda keng, biz ilm mavzusi haqida imkoniyat darajasida fikr yuritishni istadik.

Dunyo ilm asosida yaratilgan. Ilmli kishidan yomonlik chiqmaydi, u hayot so‘qmoqlarida qoqilmaydi. Nochorlik va kambag‘alikni ko‘rmaydi. Atrofga quyosh kabi nur, ziyo tarqatadi. Ziyoli nomi bilan xalq orasida hurmat, izzat-ikromga ega bo‘ladi. Har qanday jamiyatda o‘z o‘rnini topib, har qanday davrada to‘rdan joy oladi. Ma‘naviy jihatdan yuksaklanib, o‘zini anglashga muvaffaq bo‘ladi. Bilimli inson, zohiran va botinan pok bo‘lish orqali, kamolotga yetadi. Yomonlardan qochib, yaxshilarga ergashadi. Tilini yomon so‘zlardan tiyib, ming bor o‘ylab bir bor so‘zlaydi. Ilm dunyoning barcha boyliklaridan ustun turadi. Uni sizdan hech kim

o‘g‘irlab ololmaydi, ma‘naviy boylik sifatida munis do‘st va doimiy yo‘ldoshingiz bo‘ladi. U barcha mushkullarni oson aylab, egasini o‘z maqsadiga yetkazadi. Komil insonni tarbiyalashda ilm asosiy vazifani bajaradi.

Xalq og‘zaki ijodida ilm fazilatlarini xususida ko‘p maqollar mavjud. Jumladan, “Ilm-yorug‘lik, jaholat-zulmat” oqil inson bu dunyoda faqat ikki dunyo yorug‘ligini istaydi, dono xalqimiz bu maqollarni ko‘p sinovdan o‘tkazib aytgan. Ya‘ni ilmi odam ziyo topsa, ilmsiz kishi jaholatga berilib jamiyatga zarardan boshqa narsa keltirmaydi. Natijada, u zulmat orqali o‘zini ham, atrofdagilarni ham, yomonlik sari yetaklaydi. Yoki “Ilmi olar, ilmsiz oldirar”, ya‘ni ilmi odam moddiy va ma‘naviy jihatdan boy bo‘lsa, ilmsiz odam har tomonlama qashshoq bo‘lib qoladi, – deydi donishmand xalqimiz. Bunday maqollar, el orasida juda ko‘p. Masalan, “Ilmsiz kishi o‘limga yaqin”, “Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar” va hokazolar. Shu bois ilm olishga vaqtni sarflash koni foyda.

Ilohiy kitob “Robbim, ilmimni ziyoda qilgin” [1] deb duo qilish lozimligi haqidagi oyat bilan kishini bilimli va ma‘rifatli bo‘lishga chorlaydi. Hadisi Sharifda ilm olish barcha ishlardan ustun ekanligi ta‘kidlangan. Abu Bakr Qaffol Shoshiy tomonidan tartib berilgan hadislar to‘plami “Javomi‘ul kalim” deb nomlanadi. Kitobda ilm afzaliklarini to‘liq ifodalaydigan bir qancha hadislar keltirgan. Masalan, “Ilm o‘rganinglar, ilm zulmatda quyosh, vahshatda hamroh, yolg‘izlikda yo‘ldosh, begona yurtda sirdosh, og‘ir damlarda rahbar, dushmanga qarshi kurashda eng zo‘r quroldir” [2] deyilgan. Kishilarning ayrim suhbat va uchrashuvlarida uzoqdan quloqqa chalinadi: “Ilm bilan odam boy bo‘lmaydi”. Lekin quyidagi hadisda “Ilm talab qiluvchini rizqlantirish kafolatini Alloh o‘z zimmasiga olgan” deyiladi. Bu hadisdan shunday xulosa chiqarish mumkin. Ya‘ni ilm yo‘liga kirgan insonni rizqi Olloh tomonidan berilar ekan. Hatto, kafolatlab quyilgan ekan. Demak, inson ma‘naviy olamini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, o‘z fikriga ega bo‘lishga qo‘rqmasdan qadam qo‘ysa bo‘ladi. Bilimli, ilmi inson qaysi ishga qo‘l urmasin u, albatta, o‘sha ezgu ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Ilm olishning asosiy sharti – ilmiga amal qilishdir. Shu bois donishmandlarimiz ilmga amal qilishni uqtirganlar. Jumladan, Xojai Jahon Abduxoliq G‘ijduvoni: “Har ilmniki o‘rganibsiz-unga amal qiling” deb ta‘lim berganlar. Quyidagi hadis ham, fikrimizning dalilidir. “Ilmi foyda bermagan bandaga nodonligi zarar keltiradi”. Hatto, ilm o‘rganish jarayonida ustoz yoki ahli bilimga savol berish ham ilmdan darak berishi hadisi sharifda uqtirilgan: “Yaxshi savol ilmning yarmidir”. Ilmi inson muomala jarayonida behad samimiy, muloyim va go‘zal fazilat egasi bo‘ladi. Bunday xislat ilmdan uzoq, ma‘naviy jihatdan qashshoq kimsaga nasib qilmaydi. Quyidagi hadis shu mazmundadir: “Nodonlik halimlikning ofatidir”. Mayinlik, yumshoqlik, yuvoshlik singari, halimlik ham insonning ijobiy xislatlaridandir. Nodonlik esa dag‘allik, qo‘rslik kabi salbiy sifatlar belgisidir. Halim odamning nodonlik bilan qo‘pollik qilishi uning bu xislatiga katta putur yetkazadi va obro‘-e‘tiboriga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Payg‘ambarimiz (s.a.v) ummatlarini halimlik sifatini nodonlik kabi ofatdan asrash haqida ogohlantirganlar. Bugun yoshlarning ilmi bo‘lishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi kishiga ma‘naviy-ruhiy, hissiy quvvat bag‘ishlaydi. Hayotdan zavq olib chiroyli umr o‘tkazishga da‘vat etadi. Biroq XX asrning

boshlarida milliy o‘yg‘onish davri o‘zbek adabiyotining barcha namoyandalari yoshlarni bilimli qilish uchun qanchadan qancha qiyinchiliklarni boshdan kechirganlar. Hatto ayrim johillik balosiga giriftor bo‘lgan nokaslar, jamiyat ahlini ma‘naviy jihatdan yuksalishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Vaholanki, Hadisi sharifda, bunday harakatlar man qilingan. Insonlarni ilm olishdan man qilish nopoklik hisoblanar ekan. “Ilmni (ilm olishni) man qilish halol emas (joiz emas)”.

Ilm va fan bashariyatni hidoyatga boshlovchi, uning moddiy-ma‘naviy ehtiyojlarini to‘la qondirishga katta hissa qo‘shuvchi va ikki dunyo saodatiga yetaklovchi vositadir. Shu bois, ilm olishni man qilish, uni talab qiluvchilar yo‘liga to‘siq bo‘lish ma‘nan harom sanaladi. Bunday harakat jamiyatni halokat yoqasiga keltirishi aniq. Shuning uchun ham Islom dinida doimo ilm olish va shu yo‘l bilan dunyo taraqqiyotiga hissa qo‘shish har bir insonning muqaddas burchi ekanligini ta‘kidlab kelingan va ilm talab qilish har bir musulmonga farz qilingan.

Ma‘naviy yuksak insonning maqsadi bitta – bu ham bo‘lsa ezgullik va yana ezgullikdir. Chunki bu hol insonlarga zavq-shavq bag‘ishlaydi. Go‘zal hayot kechirishga undaydi. Jamiyatda ko‘proq xayrli ish qilinglar, degan chaqiriqlar bo‘ladi. Ilm berib, ilmli bo‘lishga qilingan da‘vatlar, avvalo, eng xayrli ishdir. Bu ta‘limot hadisi sharifda o‘z ifodasini topgan. “Ustoz va shogird xayrli ishlarda sherikdir”. Kezi kelganda shuni ham qayd qilish lozim. Ustozlik martabasi har kimga ham nasib qilmaydi. Lekin kasbi, hunari qanday bo‘lishidan qat‘i nazar ustoz va shogirdning maqsadi mushtarak, ya‘ni yaratish, obod etish va olgan ilmni amalda tatbiq etishdir. Yuqoridagi hadisning mazmuni ham shudir. Ustozlarimiz doim ilmning mustahkamlanishi, esda saqlanish yo‘llarini takror-takror yozishda, qayd qilib qo‘yishda deb uqtirganlar. Buning asosi quyidagi hadisda o‘z ifodasini topgan: “Ilmni yozish bilan bog‘lab qo‘yinglar!” Ilmni yozib, yo‘qolmaydigan qilib qo‘yinglar. Chunki xotiradagi ilm unut bo‘lishdan kafolatlanmagan.

Ilm barcha eshiklarni, xususan, xazinalarning qulfini ochadigan kalitdir. Ilm orqali inson ikki dunyo baxtu saodatini topadi. Hadisda “Ilm ibodatdan ustundir” deyiladi. Yana bir hadisda: “Bu dunyoning baxtu saodatini xohlasang, tijorat qil, u dunyoning baxtu saodatini xohlasang, ibodat qil, agar ikki dunyo baxtu saodatini istasang, ilm izla” degan fikr keltiriladi. Ilm orqali kishi ko‘p muvaffaqiyatlarga erishadi. Ilmli kishi agar ilmiga amal qilsagina, ham o‘ziga, ham boshqalarga yo‘lboshchi bo‘la oladi.

Olib borilgan izlanishlar natijasiga ko‘ra Jaloliddin Rumi “Masnaviyi ma‘naviy”sida “ilm” so‘zi birinchi kitobda 50-marta, ikkinchi kitobda 30-marta, uchinchi kitobda 44-marta, to‘rtinchi kitobda 46-marta, beshinchi kitobda 64-marta, oltinchi kitobda esa 47-marta, jami 281-marta uchraydi. Ko‘rinadiki, buyuk shoir o‘z asarida bizni takror va takror ilm olishga undaydi.

Hotami mulki Sulaymon ast ilm,
Çumla olam suratu çon ast ilm. [3]

Tarjimasi:

Hotami mulki Sulaymondur ilm,
Jumla olam — suvratu jondir ilm. [4]

Hamma zamonlarning ulug‘ insonlari kishilarni ilmga da‘vat qilganidek, Jaloliddin Rumi ham o‘z ijodida ilm olishni targ‘ib qilgan. Shu bois shoir pandu-nasihati qilib, “ilm omo‘z” ya‘ni ilm o‘rganish barchasidan a‘lodir, deydi. Ilm o‘rgansang, umring ziyoda bo‘lib yashashing chiroyli, vaqting xush, hayotingning har lahzasi shirin va totli bo‘ladi. Chunki ajdodlarimiz doim ilm o‘rganib yurtning nomini dunyoga tanitganlar. Sen ham ularning qilganlarini qilib, aytganlaridek, ilm olsang, uni targ‘ib qilsang tojdek odamlarning boshida bo‘lasan. Ya‘ni odamlar seni qayerda ko‘rsalar sen haqingda chiroyli ta‘rif-tavsiflar beradilar. Ularning qalbida ibratli inson sifatida yashaysan. Mavloni Rumi:

Xohi, ki hamesha shodu xurram boshy,
Har cho ki ravy, azizu mahram boshy.
Pokiza shavu rost bizy, ilm omo‘z,
To tochi naberagoni Odam boshy [5]

Jamol Kamol tarjimasi:

Ey, senki yasharsen, shodu xurram bo‘lgil,
Har yerda yana azizu mahram bo‘lgil.
Umringni halolu pok kechir, ilm o‘rgan,
To zebi bashar, ziynati Odam bo‘lgil. [6]

Yuqoridagi fikrlardan ayon bo‘ladiki, ilm agar unga amal qilsa insonni yomonlikdan, yolg‘ondan, munofiqlikdan, manmanlikdan, kibrdan, xiyonatdan, umuman, o‘ziga va atrofdagilarga ziyon keltiruvchi ishlardan saqlaydi. Ilm hayot mazmunini, lazzatini, halovatini ta‘minlaydi. Ezgu ishlarga boshlab, zavq-shavq va bunyodkorlik bilan yashashga undaydi. Inson bir martagina bu yorug‘ olamda yashaydi. Ilm egasiga baxtu saodat bag‘ishlab faqat va faqat omad keltiradi.

Har bir misra va baytning bo‘yog‘ini yoki asosiy mazmunini ifodalaydigan so‘z bor. Keltirgan ruboiyning birinchi misrasi asosini “shodu xurram” juft so‘zi tashkil etadi. Shoirning fikricha, inson hayotining har bir daqiqasini shod, xursand, zavqlanib o‘tkazishi, umrining har soniyasidan rozi, o‘zini baxtiyor his qilishi lozim. Baxtiyor bo‘lgan inson faqat ezgulik istab, ijod qilish, o‘rganish, o‘rgatish, o‘z ustida ishlash, izlanish, ijobiy ishlarni amalga oshirish, yurtni obod qilishga bor kuch-quvvatini sarflaydi. Rumiyning ta‘limoticha, “hayotidan shod” bo‘lgan odam doim harakatda, o‘z ma‘naviyatini boyitishga intiladi. U hech qachon bironing fikriga qul bo‘lmaydi. Ozod, erkin yashab, ijod qilib o‘z shaxsiy g‘oyasiga ega bo‘ladi. Bunday komilikka intilayotgan insonni esa ona yurt kutayapti. Ikkinchisi, “xurram” so‘zidir. Mazkur so‘zning lug‘aviy ma‘nosi shod, xursand, shodmon, xush, dunyodan xursand, bosifo, xushnamo, dilpisand deganidir. Yashash – xurramlikdir, xotirjam, osoyishtakun kechirishdir. Buning uchun inson, avvalo, ilm sohibi bo‘lishi lozim. Ma‘rifatli inson qayerga qadam qo‘ymasin, ko‘cha, ishxona, maktabdami, mahallada yoki o‘zga yurtdami barcha uni aziz insondek qabul qiladi. Hurmatini o‘rniga qo‘yib izzat-ikrom ko‘rsatadi. Ikkinchi misradagi “azizu mahram”ning birinchi so‘zida muallif yoshlarni ilmli bo‘lsangiz, ana shunday mavqelarga yerishasiz deya ilm olishga chorlayapti. “Mahram” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi yaqin do‘st, samimiy, munis, hamdam. Ya‘ni yaqin sirdosh, zero, ilm barchaga yo‘lboshchilik qilish bilan birga yo‘ldoshchilik ham qiladi. Xuddi

yoningda hazrati Xizr yurgandek, ilm ham har qanday qiyinchiliklaringni oson hal qilish uchun hoziru nozir bo‘ladi. Minnatsiz dastyorlik qiladi. Sendan biror narsa so‘ramaydi, balki har tomonlama yordam beradi. Uni hech kim sendan o‘g‘irlab ololmaydi. Umring davomida doim undan foydalanishing mumkin. Shu bois tanbalikka berilmasdan ilm olish kerak. Jaloliddin Rumiyl keyingi misrada “pokiza shav” toza ozoda bo‘l, deydi. Tozalik, go‘zalik bilimli kishining nishonasi. U doim qo‘llarini yuvib ovqatlanadi, tishlarini ovqatdan avval va keyin yuvadi. Liboslarini toza dazmollab kiyadi, darsxona va o‘zi istiqomat qiladigan xonani did bilan bezaydi, hovli, ko‘cha va yo‘larni iflos qilmaydi. Xullas, o‘ziga tozalik va ozodalikni shior qilib oladi. Keyingi asosiy fikr “rost bizy” bo‘lib, adib bunda “to‘g‘ri yasha” deb ko‘rsatma beradi. To‘g‘rilikning ancha qiyinchiliklari bor, odam doim halol mehnat qilib, ko‘p mashaqqat tortib hayotning baxtu saodatiga yetadi. To‘g‘ri kishi halovat bilan yashaydi. Ammo egri inson qisqa vaqt ichida birovni aldash, zo‘ravonlik, qo‘rqitish yo‘li bilan ko‘p narsaga erishib puldor bo‘lsa ham, afsuslar bo‘lsinkim, hayotining kelajagi faqat g‘am-g‘ussa, halovatsizlikda o‘tadi. Inson yo‘qki, aqlini olgandan so‘ng, hayotda o‘z o‘rnini topishga harakat qilmasin. Uning xohish istaklari, orzu-umidlarining chegarasi yo‘q. U boshqalardan farqli bo‘lishni, insoniylik fazilatlarini bo‘ladimi, boylik yoki shon shuhratdami, xullas, barchadan ustun bo‘lishni xohlaydi. Bu muammo emas, bu uchun ilmi bo‘lish va unga amal qilish kerak. Jaloliddin Rumiylning ilm haqidagi misralari bizga shundan saboq beradi.

Adabiyotlar:

1. Qur‘oni karim. kitob “Toha” surasi, 114-oyat Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abulaziz Mansur. – T.: 2009. 532-bet.
2. Abu Bakr Qaffol Shoshiy. “Javomi‘ul kalim”. Tarjimon: Abduqahhor Shoshiy. Toshkent, 2014. - 303 bet. (Maqoladagi barcha hadislar shu katobdan olingan - Q.T)
3. Balxī, Mavlono Jaloliddin Muhammad. Masnavii ma‘navī. Bar asosi matni R.Nikolson va muqobila bo nuxxahoi digar. – Tehron: Zamon, 2001. – 728 s.
4. Mavlono Jaloliddin Rumiyl. Masnaviyi ma‘naviy. Forsiydan O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasi. – T.: MERIYUS XHMK, 2010. – 864 bet.
5. Mavlono Chaloluddini Balxy, Muntaxabi osor. “Donish”. Dushanbe. 2007. sah 278.
6. 333 ruboiy. Forsiydan O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasi. Toshkent. “Musiqqa” nashriyot. 2007. 52 bet.
7. To‘xsanov Q. “Masnaviyi ma‘naviy” asari o‘zbekcha tarjimalarining qiyosiy tadqiqi. Monografiya. – Globe Edit, 2021. – 265 bet.